



O'zgarishlar yiliga nazar tashlar ekanmiz

Hurmatli oilalar va hamkasblar,

O'qituvchi, direktor va tuman rahbari sifatida men har doim o'quv yili oxirida erishgan yutuqlarimiz va oldinda nimalar kutilayotgani haqida fikr yuritishga vaqt ajrataman. Endi esa rektor sifatida ham xuddi shunday qilishga intilmoqdaman. O'quvchilar, xodimlar va oilalarning shunday ajoyib jamoasiga rahbarlik qilish men uchun sharafdir va 2024-2025 o'quv yilini yakunlayotganimizda nishonlashimiz kerak bo'lgan ko'p jihatlar borligidan mamnunman.

Bu yil biz [NYC Reads](#) va [NYC Solves](#) dasturlari orqali shahrimizdagi savodxonlik va matematika ta'lmini rivojlantirishni davom ettirdik. Biz barcha o'quvchilar, jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilar va til o'r ganuvchilar har kuni yuqori sifatlari, qat'iy va qiziqarli ta'lim olishlarini ta'minlash bo'yicha muhim ishlarni bajaradigan o'qituvchilarimizga misli ko'rilmagan darajadagi murabbiylik va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlamoqdamiz.

Shuningdek, biz [FutureReadyNYC](#) dasturimizga qo'shimcha maktablar va karyera yo'llarini qo'shish orqali [ta'lim imkoniyatlarini](#) kengaytirdik. Bu yil FutureReadyNYC da 15 000 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi va so'nghi ikki yil ichida o'quvchilarimiz mehnatga asoslangan ta'lim orqali 18 million dollardan ortiq daromad olishdi!

Biz, shuningdek, bolani va butun oilani qo'llab-quvvatlash uchun yangi [NYCPS Cares](#) tashabbusini kiritdik. Ushbu sa'y-harakatlarning bir qismi sifatida biz 1000 dan ortiq Oilaviy

maslahatchilarni o'z jamoalarida ishonchli aloqa xodimlari sifatida xizmat qilish hamda ota-onalar va tarbiyachilarni shahar resurslari bilan bog'lash uchun o'qitamiz. Va bu hali boshlanishi — yutuqlarimizning to'liq ro'yxati uchun schools.nyc.gov/24-25YearInReview sahifamizga tashrif buyuring.

Oldinda bizni ham ko'p ishlar kutib turibdi. Joriy kuzdan boshlab NYC Reads va NYC Solves 186 ta qo'shimcha maktabgacha kengaytiriladi, NYC Reads birinchi marta o'rta maktablarda ochiladi. FutureReadynyc yana 50 ta maktabga xizmat ko'rsatadi va biz yettita yangi maktab, jumladan, Northwell Tibbiy fanlar maktabi va HBCU erta kollejiga tayyorgarlik matabini ochamiz.

Shuningdek, biz [kichikroq sinflarni](#) yaratish; [3-K va Pre-K](#) sinflarimizni kengaytirish va mustahkamlash, shu jumladan imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun; autizm tashxisi qo'yilgan oq'uvchilar uchun innovatsion [ixtisoslashtirilgan dasturlarimizni](#) rivojlantirish; Nyu-Yorkliklarni [open quchoq ochib kutib olishni](#) davom ettirish; va yana ko'p narsalar uchun 3700 ta qo'shimcha o'qituvchini yollashni moliyalashtirmoqdamiz.

Shuni ta'kidlashni istardimki, bu ishda barcha: xodimlar, oilalar, jamoat tashkilotlari, saylangan mansabdarlar va barcha besh tumandan Nyu-Yorkliklar harakat qilmoqda. Shunday qilib, men sizga, NYCPS qishlog'iga, hamkorligingiz, ishtirokekingiz va fidoyiligingiz uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Oilalarimizga: Nyu-York shahar davlat maktablarini tanlaganingiz uchun rahmat. Biz sizning hamkorligingizni qadrlaymiz. Shuningdek, men oila va jamoat ko'ngillilari va rahbarlariga, jumladan, Jamiat va shahar miqyosidagi ta'lif kengashlariga, rektorning ota-onalar bo'yicha maslahat kengashiga, PTA/Ota-onalar ittifoqlariga, maktab rahbariyati guruhlariga/tuman yetakchilik guruhlariga, 1-darajali ota-onalar maslahat kengashlariga, NYC ta'lif bo'yicha maslahatchilarga va ambassadorlarga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Xodimlarimizga: Yoshlarimizga har kuni umringizni bag'ishlayotganingiz uchun rahmat. Siz ular uchun har kuni, har bir sinfda, har bir tumanda porliq kelajak qurmoqdasisiz.

O'quv yili tugaganiga qaramay, ish davom etmoqda. Men o'tgan o'quv yilidan faxrlanaman va keyingi o'quv yili nima bo'lishini intiqlik bilan kutaman. Umid qilamanki, sizda ham shunday.

Hamkoringiz,
Melissa Aviles-Ramos
Rektor

Bizning Asosiy Videolarimiz:



Talabalarimizdan Tinglang: Yil Oxiri Xotiralari

Tarjima uchun bizning [YouTube](#) sahifamizga tashrif buyuring.



Mayor Adams dan tinglang: Moliyaviy Savodxonlik No'yicha Yangi Tashabbus

Tarjima uchun bizning [YouTube](#) sahifamizga tashrif buyuring.

NYCPS Yangiliklari va Resurslari:

- Yangiliklar va manbalar uchun [The Morning Bell](#) (Tong qo'ng'irog'i) ni ko'ring yoki NYCPS-ni onlayn tarzda kuzatib boring [Facebook](#), [Instagram](#), [X](#), Va [YouTube](#).
- Bu yerda [haftalik video](#) dan Mayor Eric Adams. Yangilanishlarni to'g'ridan-to'g'ri Mayor's Idorasidan olishni istasangiz, [Itimos, bu verga bosing](#).

NYCPS oilalari: Agar siz endi ushbu axborot byulletenini olishni istamasangiz, [obunani bekor qiling.](#)